



## MAKTABDA O'QUV ISHLARI BO'YICHA DIREKTOR O'RINBOSARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

<sup>1</sup> Ro'zimatov Shuxrtajon  
Abdurahimovich  
<sup>2</sup> Abbosova Dilnozaxon  
Baxodirjon qizi

<sup>1</sup> Furqat tumani MMTB 31-umumi o'rta  
ta'lim maktabi O'IBDO'  
<sup>2</sup> Furqat tumani MMTB 13-umumi o'rta  
ta'lim maktabi o'qituvchisi

Ushbu maqolada umumi o'rta ta'lim maktablari maktabda o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rincosari faoliyati samaradorligini oshirishdagi dolzarb vazifalar va o'quv jarayonidagi, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Uning ishlashini nazorat qilish orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarining bilim darajasini yuqori saqlash mumkin. Maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida fanlararo bog'lanishlardan foydalanish haqida va umumi o'rta ta'lim tizimini isloq qilish, ushu lavozimdagi shaxs o'quv rejalar, dars jadvali va boshqa o'quv jarayonlari bilan bog'liq masalalarni boshqaradi.

Nazorat orqali ushu jarayonlarning rejalshtirilishi va amalga oshirilishida tizimlilik va samaradorlik ta'minlanadi, o'quvchilar zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, buning uchun yangicha o'qitish metodikalaridan foydalanishga doir ko'plab tashkiliy-huquqiy va ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Direktor o'rincosari o'qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga yordam beradi. Nazorat qilish orqali o'qituvchilarining professional rivojlanishi, darslarning sifatli o'tilishi va pedagogik usullarning samarali qo'llanilishi ta'minlanadi. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rincosari baholash jarayonlarini nazorat qiladi. Bu orqali adolatli va shaffof baholash tizimi yaratiladi, o'quvchilarining bilim va ko'nikmalari to'g'ri baholanadi. Ta'lim tizimida yangi texnologiyalar va usullarni joriy etish uchun direktor o'rincosarining faoliyati muhim. Nazorat qilish orqali ushu innovatsiyalar samarali qo'llanilishi va maktabning rivojlanishi ta'minlanadi. Ta'lim jarayonida davlat va xalqaro me'yoriy hujjatlar, standartlar va talablar mavjud. Direktor o'rincosarining faoliyatini nazorat qilish orqali ushu huquqiy talablar bajarilishi ta'minlanadi. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rincosari o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi muvozanatni saqlash, ularning ehtiyojlarini qondirishga mas'uldir. Nazorat orqali bu jarayonning qanchalik samarali ekanligi aniqlanadi va kerakli tuzatishlar kiritiladi.

### Annotatsiya

Shu sababli, maktabda o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarining faoliyati samaradorligini oshirish ta’lim jarayonining samaradorligi, sifatini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va huquqiy talablarni bajarish uchun dolzarb hisoblanadi. Bu orqali raqobatbardosh va yuksak salohiyatlari kadrlar avlodini tayyorlash tizimini yaratish maqsad qilinmoqda. Bu esa o‘quvchi-yoshlarda kreativlik bilan bog‘liq qobiliyatlarini shakllantirishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Shu bois innovatsion vositalar asosida yoshlarda kreativlik qibiliyatlarini shakllantirish zarurati haqidagi fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so’zlar loyiha, kreativ shaxs, ijodkorilik, ijodiy fikrlash, qobiliyat, ijodiy qibiliyatlar.

## ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАМЕСТИТЕЛЯ ДИРЕКТОРА ПО ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЕ В ШКОЛЕ

Розиматов Шухртаджон Абдурахимович Фуркатского района ММТБ 31-й общеобразовательной школы ЗДУД)  
Телефон: +998902936753

**Аннотация:** В данной статье общеобразовательные школы играют важную роль в повышении эффективности работы заместителя директора по воспитательной работе в школе и обеспечении эффективности образовательного процесса. Контролируя его работу, можно повысить качество образования, поддерживать высокий уровень знаний учащихся, использовать межпредметные связи в учебном процессе, реформировать систему общего среднего образования, решать вопросы, связанные с учебными программами., расписания уроков и другие образовательные процессы. Системность и эффективность в планировании и реализации этих процессов обеспечивается посредством кураторства, проводится множество организационных, правовых и научно-исследовательских работ по формированию современных знаний и умений у обучающихся, и для этого использованию новых методов обучения. Заместитель директора координирует деятельность преподавателей и помогает им. Супервизия обеспечивает профессиональное развитие учителей, качество уроков и эффективное использование педагогических методов. Заместитель директора по академической работе курирует процесс оценки. Благодаря этому создается справедливая и прозрачная система оценки, правильно оцениваются знания и умения студентов. Деятельность заместителя директора важна для внедрения новых технологий и методов в систему образования. Эффективное использование этих инноваций и развитие школы обеспечивается контролем. В образовательном процессе действуют государственные и международные нормативные документы, стандарты и требования. Соблюдение данных требований законодательства обеспечивается путем контроля за деятельностью заместителя директора. Заместитель директора по академическим вопросам отвечает за поддержание баланса между студентами и преподавателями и

удовлетворение их потребностей. Посредством мониторинга определяется, насколько эффективен этот процесс, и вносятся необходимые корректизы.

Поэтому повышение эффективности работы заместителя директора по воспитательной работе в школе считается актуальным для повышения эффективности и качества образовательного процесса, внедрения инноваций и выполнения требований законодательства. Это делает формирование у студентов творческих способностей одной из актуальных задач. Именно поэтому на основе инновационных инструментов обсуждаются мысли и мнения о необходимости развития творческих способностей у молодежи.

**Ключевые слова.** проект, творческая личность, творчество, творческое мышление, способности, творческие способности.

## **INCREASING THE EFFICIENCY OF THE DEPUTY DIRECTOR FOR ACADEMIC WORK AT SCHOOL**

Ruzimatov Shukhrtajon Abdurahimovich Furkat district MMTB 31-general secondary education school DDAA)

Tel:+998902936753

**Annotation:** This article discusses the current tasks of increasing the efficiency of the activities of the deputy director for academic work at the school in general secondary schools and the important role he plays in ensuring the effectiveness of the educational process. By controlling his work, it is possible to improve the quality of education, maintain a high level of knowledge of students., about the use of interdisciplinary connections in the educational process and reforming the general secondary education system, A person in this position manages the curriculum, lesson plans and other issues related to the educational process. Supervision ensures systematicity and efficiency in the planning and implementation of these processes, and a large number of organizational, legal and scientific research works are being carried out on the formation of modern knowledge and skills in students, and the use of new teaching methodologies for this purpose. The Deputy Director coordinates the activities of teachers and assists them. Supervision ensures the professional development of teachers, high-quality teaching of lessons, and the effective use of pedagogical methods. The Deputy Director for Academic Affairs monitors the assessment processes. This creates a fair and transparent assessment system, and students' knowledge and skills are correctly assessed. The activities of the Deputy Director are important for the introduction of new technologies and methods in the education system. Supervision ensures the effective use of these innovations and the development of the school. There are state and international regulatory documents, standards and requirements in the educational process. Supervision of the activities of the Deputy Director ensures the fulfillment of these legal requirements. The deputy director for academic affairs is responsible for maintaining a balance between students and teachers, meeting their needs. Through supervision, it is determined how effective this process is and the necessary adjustments are made.

Therefore, increasing the effectiveness of the activities of the deputy director for academic affairs at the school is relevant for increasing the efficiency and quality of the educational process, introducing innovations and fulfilling legal requirements.

Through this, the goal is to create a system for training a competitive and highly capable generation of personnel. This makes the formation of creative abilities in students and young people one of the urgent tasks. Therefore, thoughts and considerations were expressed about the need to form creative abilities in young people based on innovative tools.

Keywords. project, creative personality, creativity, creative thinking, abilities, creative abilities.

## KIRISH

Maktabda o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari faoliyati samaradorligini oshirishdan asosiy maqsad – zamonaviy pedagoglarga ega jamoa orqali ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish. Maktabda o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarining ishslashini nazorat qilish mavzusining maqsadi quyidagilardan iborat:

Ta’lim sifatini oshirish: O‘quv jarayonlarini yaxshilash va ta’lim sifatini yuqori darajada ta’minalash uchun direktor o‘rinbosarining faoliyatini nazorat qilish.

Tartib-intizomni saqlash: Maktabdagi o‘quv ishlari bilan bog‘liq barcha jarayonlarning me'yoriy hujjatlarga va qoidalarga mos ravishda amalga oshirilishini ta’minalash.

Rejalashtirish va amalga oshirish: O‘quv rejalarini va dasturlarini samarali rejalashtirish va amalga oshirish, shu jumladan dars jadvalini tuzish va monitoring qilish.

Muammolarni aniqlash va hal qilish: O‘quv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash va ularni tezda hal qilish choralari ko‘rish.

Pedagoglarning faoliyatini muvofiqlashtirish: O‘qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va metodik yordam ko‘rsatish.

Hisobot va tahlil: O‘quv ishlari bo‘yicha hisobotlar tayyorlash va tahlil qilish, natijalar asosida tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Ta’lim standartlariga rioya qilish: Davlat va xalqaro ta’lim standartlariga mos ravishda o‘quv jarayonlarini tashkil etish va boshqarish.

Maktabda o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari faoliyati samaradorligini oshirish mavzusi bo‘yicha quyidagi vazifalarni belgilash mumkin:

➤ **O‘quv jarayonini samarali rejalashtirish:**

O‘quv jadvalini to‘g‘ri tashkil etish va o‘qituvchilar orasida dars yuklamasini teng taqsimlash.

O‘quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy talablarga mos ravishda yangilash.

➤ **Pedagogik faoliyat monitoringi:**

O‘qituvchilarning dars o‘tish jarayonlarini muntazam kuzatish, tahlil qilish va baholash

O‘quvchilarning bilim darajasini nazorat qilish va ularga yordam berish uchun qo‘sishma tadbirlarni tashkil etish.

➤ **O‘quv-uslubiy yordamni kuchaytirish:**

O‘qituvchilarga yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion dars usullari va materiallardan foydalanish bo‘yicha treninglar va seminarlar tashkil etish.

Darsliklar va qo'shimcha o'quv materiallarini yangilash va boyitish.

➤ **O'quvchilar bilimini baholash tizimini takomillashtirish:**

Test va sinov tizimlarini takomillashtirish, ularning obyektiv va shaffofligini ta'minlash

O'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lif jarayonini tashkil etish.

➤ **Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish:**

Ota-onalar bilan muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazish va ularni o'quv jarayoniga jalb qilish.

Ota-onalarni o'quvchilarning o'qish jarayoni va rivojlanishi haqida doimiy xabardor qilish.

➤ **O'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish:**

Elektron kundalik va boshqa raqamli vositalarni tadbiq etish orqali ta'lif jarayonini optimallashtirish.

O'qituvchilar va o'quvchilar uchun zamonaviy onlayn platformalarni taqdim etish va foydalanishni kengaytirish.

➤ **Faoliyat samaradorligini nazorat qilish:**

Har bir o'qituvchining va o'quvchilarning yillik reja va maqsadlari bo'yicha erishgan natijalarini tahlil qilish va ularni baholash.

Faoliyat samaradorligini oshirish uchun har yili tahlillarni yangilash va yutuqlarni rag'batlantirish tizimini joriy etish.

Bu vazifalar o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarining faoliyatini yanada samarali tashkil qilishga va ta'lif sifatini oshirishga yordam beradi.

Maktabda o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari faoliyatining samaradorligini oshirish masalasi ko'plab davlatlarda dolzarb hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda bu lavozimdagи mutaxassislarining faoliyatini yaxshilash maqsadida qo'llanilayotgan ba'zi tajribalar quyidagilardan iborat:

**AQSh:** Professional rivojlanish: AQSh maktablarida direktor o'rinnbosarlarining malaka oshirish va doimiy o'qitish tizimiga katta e'tibor qaratiladi. Ular muntazam ravishda seminarlar, treninglar va rahbarlik bo'yicha kurslarga qatnashadilar.

**Mentorlik tizimi:** Maktabda yangi tayinlangan direktor o'rinnbosarlariga tajribali rahbarlar tomonidan murabbiylit qilinadi. Bu ularga tezroq moslashish va ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

**Ma'lumotlar tahlili:** O'quv jarayonlarini monitoring qilish va tahlil qilish uchun ma'lumotlar bazalari va texnologik vositalardan foydalanish keng tarqalgan. Bu samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

**Buyuk Britaniya:** Qo'llab-quvvatlash tizimlari: Buyuk Britaniyada maktab rahbarlari uchun keng ko'lami qo'llab-quvvatlash tizimlari mavjud. Ularga o'qitish uslublari, baholash usullari va texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish imkoniyatlari beriladi. Raqamli texnologiyalarni qo'llash: O'quv jarayonini boshqarishda va o'quvchilarning rivojlanishini kuzatishda raqamli texnologiyalar va platformalardan foydalanish faoliyat samaradorligini oshirishda katta yordam beradi.

**Yaponiya:** Ochiq kommunikatsiya: Yaponiyada direktor o'rinnbosarlari va o'qituvchilar o'rtasida muntazam ravishda uchrashuvlar va ochiq muloqotlar tashkil

etiladi. Bu o'qituvchilar va rahbarlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Dasturiy boshqaruv: Yaponiyada o'quv jarayonini rejalashtirish va boshqarish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar orqali direktor o'rinbosarlari o'quv jarayonini samarali tashkil eta oladilar.

**Rossiya:** Rossiyada maktabda o'quv jarayonini boshqarish uchun o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari ta'lim dasturlarini rejalashtirish, dars jarayonini muvofiqlashtirish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Samaradorlikni oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqiladi, masalan, ta'lim sifati monitoringi, pedagogik nazorat va tahlil tizimlari.

O'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining malakasini oshirishga katta e'tibor qaratiladi. Rossiyada pedagoglar va o'quv ishlari bo'yicha rahbarlar uchun doimiy malaka oshirish kurslari tashkil etiladi. Ushbu kurslar rahbarlik ko'nikmalarini oshirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarni qo'llashga qaratilgan bo'ladi.

Rossiyada innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga intilish mavjud. Shuning uchun o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari zamonaviy raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim platformalari va masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga jalg qilinadi.

Rossiya ta'lim tizimida ta'lim sifati doimiy monitoring qilinadi va baholanadi. Shu jarayonlarda direktor o'rinbosarining roli katta, chunki u nafaqat o'quv dasturlarining amaliyatga tadbiq etilishini nazorat qiladi, balki o'quvchilarning bilimlarini muntazam ravishda tahlil qilib boradi.

Rossiyada ta'lim tizimi xalqaro tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish uchun faol hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan. Direktor o'rinbosarlari xalqaro seminarlar, konferensiyalar va loyiha ishlari orqali tajriba almashadilar, bu esa ularning faoliyatini yangi darajaga ko'taradi.

Ushbu yondashuvlar Rossiya davlatidagi o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirishga katta hissa qo'shamdi. Tajriba, o'z navbatida, ta'lim jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi.

Bu tajribalar ko'rsatib turibdiki, samaradorlikni oshirish uchun muntazam ravishda o'qitish, rahbarlik ko'nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullarini qo'llash muhim omillar hisoblanadi.

#### Qiyosiy tahlil etilganligi:

	Amaldagi holat (O'zbekistonda)	Amaldagi holat (Xorijda)	Taklif
	Aksariyat umumta'lim maktablarida O'IBDO' tomonidan hozirgi kunda o'qituvchilarga	<b>AQSHda</b> o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari o'qituvchilar uchun professional rivojlanish dasturlarini tashkil etadi	Har bitta maktabda har chorakda O'IBDO' tomonidan mahoratli darslarni o'tish uchun qo'llaniladigan

	professional rivojlanishlari uchun yangi metodikalarni o‘rgatishlaridagi sustkashliklar	va ularning malakasini oshirishni ta’minlaydi.	texnologiyalar bo‘yicha seminarlar o‘tib berishlari kerak
.	Bizning aksariyat umumta’lim maktablarining O‘IBDO‘ lari o‘zlarining faoliyatlarini baholab borish uchun o‘qituvchilar va o‘quvchilarning fikrlarini, tavsiyalarini maslahatlashmasligi	<b>Yaponiyada</b> direktor o‘rinbosarlari va o‘qituvchilar o‘rtasida muntazam ravishda uchrashuvlar va ochiq muloqotlar tashkil etiladi. Bu o‘qituvchilar va rahbarlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.	Maktab direktori tomonidan o‘quv yilida barcha pedagoglarning faoliyatini baholash bo‘yicha har chorakda o‘qituvchilar va o‘quvchilar fikrlarini online so‘rvnomalar va takliflar orqali baholab borilishi kerak
.	Bizning aksariyat umumta’lim maktablarida yangilanish va modernizatsiyaga e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa-da, bu jarayon ko‘proq mahalliy va uzoq muddatli vaqtни talab qilmoqda.	<b>Rossiya</b> ta’lim tizimida ta’lim sifati doimiy monitoring qilinadi va baholanadi. Shu jarayonlarda direktor o‘rinbosarining roli katta, chunki u nafaqat o‘quv dasturlarining amaliyotga tadbiq etilishini nazorat qiladi, balki o‘quvchilarning bilimlarini muntazam ravishda tahlil qilib boradi	O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari uchun treninglar, seminarlar va master-klasslar tashkil qilish, zamonaviy ta’lim usullari va strategiyalari bo‘yicha bilimlarni kengaytirish

### MAKTABDA O‘QUV ISHLARI BO‘YICHA DIREKTOR O‘RINBOSARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI TAKLIFLAR:

1 O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarga maqsadli va mualliflik o‘quv kurslarini tashkillashtirish kerak;

Pedkengashlarda o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari zamonaviy texnologiyalar va metodikalardan foydalanish bo‘yicha mahorat darslarini o‘tib berishlari ;

3 O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari faolyati samaradorligini indeksini joriy qilish

$$FSi = eM + Mt + OTM + Fo + S + XTo' + PIM + O + Bbs + M + Pk / 11$$

Samradorlik ko‘rsatkichi

eM-eMaktab samaradorligi  
Mt-o‘qituvchilarni malaka toifasi  
OTM-oliy ta’limga 11-sinflarni kirish ko‘rsatkichi  
Fo-fanlar olimpiada tuman ko‘rsatkichi  
S-sertifikarlar(milliy va xalqora)  
Xto‘-xorijiy tillar o‘qitilishi  
PIM-Prezident va iqtisoslashgan maktabga kirish ulushi  
O-ommolashtirish  
Bbs-bitiruvchilarni bilim sifati  
M-mexnat staji  
Pk-pedagogik kengash so’rovnama  
Belgilangan ustama hisoblash  
FSi =eM +Mt+OTM+Fo+S+Xto’+PIM+O+Bbs+M+Pk/11  
55-65-10 %  
66-75-15 %  
76-85-20 %  
86-95-25 %  
96-100-30  
Direktor jamg‘armasidan yoki budgetdan tashqari tapilgan mablag‘lardan  
rag’batlantirish  
**XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv ishlari  
bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari ta’lim tizimining asosiy mexanizmi hisoblanadi.  
Ularning faoliyatini baholash maktabda zamonaviy lider o‘qituvchilar salmog‘ining  
oshishi, pedagoglarning toifalarini oshirishlari, ularning AKT dan, zamonaviy  
texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini yanada oshirishlari, bundan tashqari  
doimiy ravishda hamkorlik va o‘z ustida ishlaydigan pedagoglarni shakllantira olish,  
turli xil bilimli va qobiliyatli o‘qituvchilar bilan loyiha ishlarini amalga oshirish orqali  
ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, o‘qivchilar bilan do‘stona munosobatlarni  
yanada shakllantirish, shuningdek, zamonaviy bilim, ko‘nikmalarga ega bo‘lib  
o‘quvchilarining hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishlari uchun mas’ul shaxs deb  
hisoblayman. Zero, ta’lim tizimida zamonaviy lider o‘quv ishlari bo‘yicha direktor  
o‘rinbosari Yangi O‘zbekistonning kelajagini yaratuvchilaridir!

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni;
3. 2017-yil 15-avgustdagи 610-sonli "Umumiy o‘rtalim maktablarida ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida"gi qaror va boshqa tegishli qarorlar;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni “2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”(11.05.2022);
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 20-dekabrdagi 565-sonli buyrug‘i
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 1-apreldagi 105-sonli buyrug‘i;
7. Mehnat Kodeksi;

8. “Ta’lim muassasasida xodimlarni boshqarishning o‘ziga xos jihatlari” - Moxira Xayitova;
9. “Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari” – S.T.Turg‘unov;
10. boshlang‘ich ta’lim darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish – Mamajonova Munojatxon Xoshimovna ;  
11. Hasanov O. Liderlar kitobi. - T.. Muharrir nashiryoti, 2020  
Liderlik va nazoratning ahamiyati  
- Kitobdan iqtibos: “ Noto‘g‘ri qo‘yilgan bitta g‘isht, bitta chirigan yog‘och ertangi butun bir imoratning qulab tushishiga sababchi bo‘lishi mumkin”.
12. Robert J.Marzano, Timotihy Waters, and Brian A.McNulty.“School Leadership That Works” -Maktabda samarali yetakchilik. Monografiya